

### 3-dars

#### Darsning mavzusi: Matn haqida (7 – 9-mashqlar)

**Darsning ta'limiy maqsadi:** matn qismlarini o'zaro bog'lash, har bir bo'limni xatboshidan boshlash ko'nikmasini o'stirish; o'qilgan matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglab, ifodalay olish, tanlangan matnga sarlavha qo'yib reja tuza olish, tuzilgan ijodiy matnning mantiqiy izchilligiga rioya qilgan holda xatboshi, imlo hamda husnixat qoidalariga amal qilib yoza olish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarda kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, kitobxonlik ruhini singdirish; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish; o'zining xato va kamchiliklarini to'g'ri tushunib, o'zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o'rtoqlariga yordam berish; milliy an'ana va qadriyatlarni bilish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, bolalar nutqini yangi so'zlar bilan boyitish; talaffuz me'yorlariga rioya qila olish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish.

**Darsning turi:** o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhbat, analiz, *“Blits so'rov”* metodi, ko'rgazmalilik.

**Darsning jihozlari:** kitob va kutubxonalar rasmlari, multimedia ilovalari.

#### Darsning borishi

##### I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

##### II. O'qilgan mavzuni mustahkamlash.

**Husnixat daqiqasi:** *Kitob – g'oyat qudratli kuch.*

Uyga berilgan vazifa o'quvchilar daftari ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng suhbat yordamida uy vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi. Quyidagi savollar beriladi:

1. *Matnga qanday sarlavha qo'ydingiz?*
2. *Siz kelajakda kim bo'lishni orzu qilasiz?*
3. *Orzu, kelajak so'zlariga ma'nodosh so'zlar toping.*

To'g'ri javob bergan va husnixat asosida yozgan o'quvchilar daftarlari namuna sifatida ko'rsatilib rag'batlantiriladi.

### **III. Yangi mavzu bayoni.**

*Tekshiruv diktanti.* Abrorga dadasi yangi kitob sovg'a qildi. Kitobda ertaklar juda ko'p ekan. Undagi hamma ertaklar Abrorga yoqdi.

O'quvchilar quyidagi savol va topshiriqlarni bajaradilar:

1. *Berilgan gaplar matn bo'la oladimi?*

2. *Matnda nechta gap bor?*

3. *Matnga sarlavha qo'ying.*

O'quvchilar yozganlarini tekshiradilar.

O'qituvchi 7-mashqda berilgan rasmlar asosida o'quvchilar bilan suhbat tashkil etadi.

Dunyodagi ziyo taratuvchi maskanlardan biri maktab bo'lsa, biri kutubxonadir. Bugungi kunda kutubxonalar ham kitobxonlar talabidan kelib chiqib, ancha takomillashmoqda. Zamonaviy kompyuterlar bilan ta'mirlangan keng va shinam kutubxonalar ayni paytda katta-yu kichik kitobxonlar bilan to'lgan. Maktabimiz kutubxonasi ham kundan kunga yangi-yangi kitoblar bilan boyitilmoqda. Bu yosh kitobxonlar uchun ayni muddao.

### **Qoida bilan ishlash:**

*Matn nutqning yozma shaklidir. Matn gaplardan tuziladi. Matndagi gaplar mazmun jihatidan o'zaro bog'lanadi.*

**“Eslab qoling!”** sahifasidagi ma'lumotlar o'quvchilarga o'qib eshittiriladi. O'quvchilardan olingan ma'lumotlar bo'yicha xulosalari va qo'shimcha fikrlari tinglanadi, fikrlar umumlashtiriladi.

*Birinchi globusni bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy yasagan.*

*Sinf doskasi ilk bor XIX asrda paydo bo'lgan.*

*Sharikli ruchkani 1945-yilda Berush ismli muhandis ixtiro qilgan.*

*Birinchi xarita miloddan avvalgi 2300-yili qadimgi Mesopotamiyada ishlangan.*

*Birinchi avtoruchka 1880-yilda Amerikada kashf etilgan.*

### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

8-mashq ustida ishlanadi. O'quvchilar savol-javob qilinadi.

1. *Matn nima?*

Mazmunan bir-biriga bog'langan gaplardan tashkil topgan nutqiy birlik matn deyiladi.

2. *Matn nimalardan tuziladi?*

Matn gaplardan tuziladi.

3. *Matn va gap o'rtasida qanday farq bor?*

Gap so'zlardan, matn mazmunan o'zaro bog'langan gaplardan tashkil topadi.

#### *4. Gaplarning oxiriga qanday tinish belgilari qo'yiladi?*

Gaplarning oxiriga uning ifoda maqsadiga ko'ra nuqta, so'roq, undov belgisi qo'yilishi mumkin.

#### **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### **VI. Uyga vazifa berish.**

9-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.

CHOP ETISH UCHUN EMAS!